

## **MEHMONDO‘STLIK ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**Yuldasheva Orasta Ravshanbekovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, assistent o‘qituvchi

[yuldashevaorasta@gmail.com](mailto:yuldashevaorasta@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mehmondo‘stlik insonning oliy fazilatlaridan biridir. Xalqimiz mehmondo‘stlikni azaldan ulug‘lab kelgan hamda o‘zining mehmondo‘stligi bilan qadimdan mashhur bo‘lgan. Xalqimizning mehmon kutish odobi, mehmonlarga bo‘lgan hurmati hamda mehmondo‘stlikka bo‘lgan munosabati juda ko‘p maqollarda aks etgan. Ularda mehmondo‘stlik kishining ajoyib xislati ekanligi ko‘rsatiladi, mehmon kutishga hozir-u nozir bo‘lib turish lozimligi uqtiriladi. Mezbonga mehmonni qanday kutib olish hamda mehmonga esa borgan joyida o‘zini qanday tutishining odob va qoidalari o‘rgatiladi. O‘zbek xalq maqollarida ham “mehmondo‘stlik” odobi aks etgan. Maqollarda mehmonlar xalqimiz uchun qadrli ekanligi, mehmon uchun har doim uyning to‘ri bo‘sh turishi, mehmon izzati, mehmon kelishi bilan riqz va baraka ham kelishi, mehmon kelgan uy barakali bo‘lishi, mehmon tashrif buyurgan xonadonning chirog‘i yorug‘roq porlashi, mehmon eng tansiq taomlar bilan siylanishi lozimligi, aks holda mezbon xijolat tortishi, mehmonga ko‘rsatilgan izzat-ikrom unga yozilgan dasturxonda namoyon bo‘lishi, mezbon mehmon uchun va aksincha mehmon mezbon uchun qadrli ekanligi, mehmon mezbon uchun ziynat ekanligi, mehmonni umuman urintirmasdan tortilgan narsalarni qulaylik bilan tanavvul qilishini ta‘minlash lozimligi, mehmonga shirinsuxanlik bilan muomalada bo‘lish kabilar aks etgan.*

**Kalit so‘zlar:** maqol, mehmondo‘stlik, mehmon, mezbon, madaniyat, etnolingvistika.

### **ABSTRACT**

*Hospitality is one of the highest human qualities. Our people have long honored hospitality and have been famous for their hospitality since ancient times. Our people's hospitality, respect for guests and attitude to hospitality are reflected in many proverbs. They show that hospitality is a wonderful quality of a person, and it is taught that it is necessary to be attentive to the guest's expectation. The host is taught how to welcome the guest, and the guest is taught the manners and rules of behavior in the place he/she is visiting. The etiquette of “hospitality” is also reflected in Uzbek folk proverbs. In the proverbs, guests are precious to our people, the house is always empty for the guest, the honor of the guest, with the arrival of the guest comes the blessing and blessing, the house where the guest comes is blessed, the light*

*of the house where the guest visited is brighter. shine, the guest should be treated with the most delicious dishes, otherwise the host will be embarrassed, the honor shown to the guest should be reflected in the table written for him, the host is valuable to the guest and vice versa, the guest is valuable to the host, the guest is an ornament to the host, the guest is generally It is reflected that it is necessary to ensure that he eats things that have been weighed comfortably without trying, and to treat the guest with sweetness.*

**Key words:** *proverb, hospitality, guest, host, culture, ethnolinguistics*

## **KIRISH**

Jahon tilshunosligida xalq tafakkuri mahsuli sanalmish xalq ogʻzaki ijod manbalarining qiyosiy va chogʻishtirma aspektidagi tahliliga bagʻishlangan qator ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, muayyan xalq turmush tajribasi, koʻp yillik kuzatuvlari natijasining mahsuli boʻlgan, milliy qadriyat, anaʼana, ijtimoiy munosabatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim oʻrin tutuvchi xalq tafakkurining eng yorqin namunasi – maqollarning filologik tadqiqiga bagʻishlangan ishlar ham anchagina. Biroq maqollarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish bilan bogʻliq jihatlarini til sohibi bilan aloqadorlikda tahlil etish tilshunoslikda oʻrganilishi kerak boʻlgan muhim mavzulardan biridir. Maqollarning bu jihatdan tadqiqi tildan foydalanuvchilarning qarashlarini, olamni idrok etish darajasini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni oʻrganishda va tarixiy ijtimoiy muhitning til hodisalarida namoyon boʻlish aspektlarini tadqiq etishda dolzarflik kasb etadi. Dunyo tilshunosligida xalq ogʻzaki ijodi namunalari, xususan, maqollar matni qiyosiy-tarixiy, struktur-semantik yoʻnalishda tadqiq etilgan. Maqollarning struktur-grammatik asoslari, mazmuni obrazli tarzda ifodalash funksiyasi, koʻchma maʼnoda taʼsirchanlikka xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan [1]. Maqollarni etnolingvistikada tahlil qilish ham tilshunoslik oldida turgan muhim masalalar biridir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Tilshunoslikning taraqqiy etishi, tadqiqotlarda lisoniy imkoniyatlarning nutqiy xoslanishlari masalasiga chuqurlashib borilishi, umuman, oʻzbek uslubshunosligining alohida lingvistik soha sifatida shakllanishi natijasida xalq maqollarining uslubiy xoslanishi, shuningdek, oʻzbek adiblarining individual idiolektiga xos va xoslangan maqollarning funksional imkoniyatlari va xususiyatlari ilmiy tadqiqotlarda chuqur oʻrganila boshlandi. Bu borada S.Mirzayev, S.Asqarov, A.Joʻraxonov, M.Toʻychiev, M.Hakimov va boshqa lingvistlarning tadqiqotlari [2] oʻzbek maqollarining tilshunoslikda oʻrganilishida sezilarli hissa qoʻshdilar.

Avvalo, adabiyotshunoslik va etnografiya, keyinchalik tilshunoslik, soʻngra xususiy soha – uslubshunoslikda tavsifiy asoslarda oʻrganilgan maqollarning til va adabiyot kesimidagi tadqiqi boʻyicha bugungi kunda katta hajmdagi ishlar koʻlami vujudga keldi. Hozirgi kunda esa ular asos vazifasini bajarmoqda. Tilshunoslikda yangi paradigmaning shakllanishi ham maqollarning kengroq oʻrganilishiga sabab boʻlmoqda. Xalqning hayot tajribasidan kelib chiqadigan xulosalarining badiiy ifodasi maqollardir. Maishiy hayotimizda, badiiy va ilmiy asarlarda, publisistika, siyosiy va ilmiy adabiyotlarda juda koʻp qoʻllangan, hozirda ham qoʻllanib kelinmoqda. Maqollar turgʻun birikmalardir. Ular tilimizda qoliplashgan holda namoyon boʻladi. Maqollardagi soʻzlarni boshqasi bilan almashtirish, biror soʻzni qoʻshib yoki oʻrniga boshqa bir soʻzni qoʻllab boʻlmaydi. Hozirgi kunda fandagi munozarali masalalardan biri maqollarning lisoniy mavqei, uning xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlari va lisoniy birliklardan farqli jihatini aniqlashtirish muammosidir

### **MUHOKAMA.**

*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqolining kelib chiqishi xususida falsafa fanlari nomzodi K.Mahmudov quyidagi fikrlarni bildirgan: “Andijonda yaxshi bir odat bor. Mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qoʻshnilar dasturxon chiqarishadi. Xalqimizda shu narsa ham borki, qoʻshnilar oʻrtadagi devorning biror yeridan teshik, baʼzilari eshik ochib qoʻyadilar. Vaqti-vaqti bilan teshikdan qarab, bir-birilarining hol-ahvollarini soʻraydilar, tansiq ovqat qilganlarida bir kosada (yoxud laganda) shu teshikdan uzatadilar [3]. Maqoldagi “rizqi kelar teshikdan” deyilishining sababi shu boʻlsa kerak. Xalqimiz bu maqoli bilan: “mehmon kelsa, uni nima bilan kutaman, - deb gʻam yema. Mehmonni ochiq chehra bilan kutib olaver, uning rizqi topilib qolar, balki oʻz rizqini oʻzi olib kelayotgandir. Mehmonga kelganlar mezbonga non, somsa, qatlama, qovurma, shirinliklar va boshqa noz-neʼmatlar olib borishi azaldan odat sanaladi va bu odat hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Bu maqol bilan insonlarni mehmondoʻstlikka undaydilar.

Mehmon – bu ot *mehman* va *mihman* shakllarida tojikcha-ruscha lugʻatda keltirilgan; oʻzbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan boʻlib, “ziyofatga kelgan kishi” degan maʼnoni angladi [4].

Xalqimiz mehmondoʻstligi bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Shuning uhun ham *mehmon otangday ulugʻ* yoki *mehmon atoyi xudo* mehmonni eʼzozlash, hurmat qilish va boshqa mehmondoʻstlikka chorlaydigan bir nechta maqollar shakllangan.

***Mehmon koʻrki – dasturxon.*** Mehmondorchilikning oʻziga xos odatlari asosida shakllangan maqolda dasturxon milliy realiyasi va predmetli lingvomadaniy

kodi ishtirok etgan. Aslida fors-tojikcha soʻz boʻlgan dasturxon oʻzbek madaniyatini anglatadi. Dasturxon – oʻrtaga yoyib, ustiga non, ovqat va boshqa noz-u neʼmatlar qoʻyiladigan mato, roʻgʻor buyumi. Oʻzbek tilida dasturxon soʻzi metonimiyaga asoslangan koʻchma maʼnolarda qoʻllanadi: 1) “taom, noz-neʼmat”: dasturxon qaramoq; 2) “taom, noz-neʼmatlarni tanovul qilish jarayoni”: dasturxon oʻtirmoq.

Xalqimizda mehmonga borganda u-bu narsa olib borish odati bor. Dasturxon soʻzi shunga ishora qilyapti. Oldingi zamonlarda mehmonga borganda dasturxon (laganga) solib patir, non, shirinlik, somsa va boshqa taniq yeguliklar olib borishgan. Hozirgi kunda ham, aynan, dasturxon olib yurishmasa ham mezbonning uyiga nimadir olib kirish odati saqlangan.

Mahmud Koshgʻariyning “Devon”ida ham mehmondorchilik haqidagi maqol uchraydi: *barigʻ otru tutsak, joqqa sanmas*. Bor narsani mehmonga taqdim etilsa, mehmon yoʻqqa sanamas [5]. Bu maqol hozirgi kunda ham aytiladi: *Mezbon borini qoʻysa, mehmon yoʻqqa sanamas*.

### **NATIJALAR.**

Milliy qadriyatlar – muayyan xalq, millat, elat hayoti, turmush tarzi, oʻtmishi, kelajagi, ayni vaqtdagi ijtimoiy muhiti bilan bogʻliq boʻlgan, insonlar oʻrtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmui; shaxslar va ijtimoiy guruhlar faoliyatini tegishli meʼyorga soladigan maʼnaviy hodisa hisoblanadi. Oʻzbek millatiga xos boʻlgan, milliy mentalitetni ifodalovchi maqollardagi milliy realiya va lingvovomdaniy kodlar oʻzbek xalqining milliy koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, lingvovomdaniy kodlar unutilgan urf-odatlarini tushunishga yordam beradi. Oʻzbek xalqiga xos boʻlgan qadriyatlar asosida shakllangan maqollarda oʻzbek xalqiga xos mehmonlarni eʼzozlash, bolajonlik, hurmat, jonkuyarlik va boshqa fazilatlar namoyon boʻladi.

### **XULOSA**

Ajdodlarimizning hayotidagi turli xil anʼana va urf-odatlar, hayot tarzi bir qator maqollarning shakllanishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Vaqt oʻtishi bilan oʻz maʼnosida qoʻllanuvchi urf-odatlar asta-sekinlik bilan umumiylik kasb etib, aniqlikdan mavhumlikka oʻtgan va koʻchma maʼno ifodalshga xoslangan.

Xalqimizning ustoz-shogirdlik anʼanasi, mehmon kutish odobi, hasharga borish, mahallaning yaxshi-yomon kuniga yarash, toʻy va aza maʼrakalari bilan bogʻliq boʻlgan urf-odatlar hamda milliy realiya va lingvovomdaniy kodlar oʻzbek millatiga xos boʻlgan, milliy mentalitetni ifodalashda, oʻzbek xalqining milliy koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, lingvovomdaniy kodlar unutilgan urf-odatlarini tushunishga ham yordam beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Ahmet E. O‘zbek va turk tillaridagi maqollar semantikasida ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi. Avtoreferat. Toshkent, 2024.- 56 bet.
2. Абдуллаев Б., Дониёров Х., Мирзаев С. Шиддаткор одамлар қиссаси // Шарқ Юлдузи, 1960. - № 2. – Б. 155-122.; Асқаров С. Қодирий ижодида фолклорнинг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. - № 1. – Б. 84-87.; Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. - № 4. – Б. 52-55.; Тўйчиев М. “Шинелли йиллар” романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши // Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. Самарқанд, 1971. – Б.84-87.; Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – 176 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. [www.ziyouz.kutubxonasi](http://www.ziyouz.kutubxonasi)
4. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома (ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – [www.ziyouz.kutubxonasi](http://www.ziyouz.kutubxonasi). 527 бет.
5. Маҳмуд ибн Ҳусайн ибн Муҳаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк) [3 жилдлик]. 2-жилд. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. —Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. —292 б.